



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - avgust



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosi tasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **10 300,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar - avgust oylariga nisbatan **104,7%** ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **795,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **125,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9504,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,3 %**), shu jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1217,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,4 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonal ar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd.so'm	2022- yil yanvar – avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	10 300,3	104,7	795,4	125,9	9 504,9	103,3
Buxoro shahri	3 203,3	105,9	453,0	148,8	2 750,3	101,1
Kogon shahri	396,3	102,7	7,2	121,6	389,1	102,4
tumanlar Olot	304,8	105,8	4,9	91,2	299,9	106,1
Buxoro	739,6	101,9	3,0	103,5	736,6	101,9
Vobkent	369,3	102,2	4,5	88,5	364,8	102,4
G'ijduvon	1 795,1	105,8	55,7	146,8	1 739,3	104,9
Kogon	258,7	104,8	122,1	121,2	136,6	93,5
Qorako'l	863,6	108,8	7,6	93,9	856,0	109,0
Qorovulbozor	174,3	102,7	1,0	93,4	173,3	102,8
Peshku	438,3	101,9	119,9	84,5	318,5	110,4
Romitan	629,2	103,1	4,5	90,6	624,7	103,2
Jondor	635,4	102,6	6,8	84,6	628,6	102,9
Shofirkon	492,5	101,5	5,1	95,0	487,4	101,6

2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Qorako'l tumanida (108,8 %), Buxoro shahrida (105,9 %) va G'ijduvon (105,8 %) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-avgust, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-avgust oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,2%** ni yoki **10 623,5 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)
(2022- yil, 2023- yil yanvar –avgust oylari)**



2023- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **104,7 %** ni tashkil qildi.

yanvar-avgust


2023- yil




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 504,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **3,3 %** ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **25,9 %** ga o'sdi va **795,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,7 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (**99,6 %**), Qorovulbozor (**99,4 %**) va Qorako'l (**99,1 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **7,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**47,2 %**), Peshku (**27,3 %**) tumanlari va Buxoro (**14,3 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Buxoro viloyati	5 106,5	103,0
Buxoro shahri	11 030,5	104,0
Kogon shahri	6 191,9	100,6
<i>tumanlar</i> Olot	2 953,6	104,3
Buxoro	4 214,2	100,3
Vobkent	2 522,2	100,5
G'ijduvon	5 637,8	104,0
Kogon	3 113,2	102,7
Qorako'l	5 080,3	107,5
Qorovulbozor	8 893,1	100,6
Peshku	3 390,2	100,1
Romitan	4 208,7	101,3
Jondor	3 475,9	101,0
Shofirkon	2 663,4	100,1


2023 - yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 106,5** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,0%**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**11 030,5** ming. so'm), Qorovulbozor tumani (**8 893,1** ming. so'm) va Kogon shahri (**6 191,9** ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 217,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **110,4 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **598,5** mlrd. so'mni (**126,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **618,9** mlrd. so'mni tashkil etdi (**98,1 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	1 217,4	110,4	598,5	126,8	618,9	98,1
Buxoro shahri	152,4	92,4	136,1	99,2	16,3	59,0
Kogon shahri	24,8	84,5	6,8	37,6	18,0	161,3
<i>tumanlar</i>						
Olot	105,6	141,8	11,7	80,0	93,9	157,0
Buxoro	19,0	59,1	18,4	101,1	0,6	4,6
Vobkent	98,3	101,8	56,5	85,9	41,8	136,0
G'ijduvon	304,8	106,7	207,1	125,0	97,7	81,5
<i>Kogon</i>	<i>2,7</i>	<i>4,0 m.</i>	<i>2,7</i>	<i>4,0 m.</i>	<i>-</i>	<i>-</i>
Qorako'l	233,5	161,6	111,7	14,6 m.	121,8	89,0
Qorovulbozor	21,2	106,4	4,3	110,4	16,9	105,5
Peshku	66,3	106,5	12,3	129,4	54,0	102,4
Romitan	65,6	123,8	14,2	139,8	51,4	120,1
Jondor	72,4	137,5	6,9	2,2 m.	65,5	132,3
Shofirkon	50,7	58,4	9,6	56,4	41,1	58,9

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **598,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**236,7** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 236,7
	Non va non mahsulotlari 80,9
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 47,0
	Tovuq go‘shti 28,9
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 26,9
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 13,9
	Tuxum 15,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 3,3
	Ziravorlar 8,2
	Tuzlamalar 8,4
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 4,6
	Nooziq-ovqat tovarlari 124,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023 - yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **618,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **546,2** mlrd.so'm, qo'y va echkilar **68,2** mlrd. so'mni, otlar **2,4** mlrd. so'mni, parrandalar **1,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	309,9
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	111,0
 1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar	125,3
 Qo'ylar	45,4
 Otlar	2,4
 Echkilar	22,8
 Kurka, o'rdak, g'oz	1,0
 Tovuqlar	0,49
 Quyonlar	0
 Qushlar	0,2

2023 - yil 1 - sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 094** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – sentabr holatiga nisbatan **336** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,8 %** ni tashkil etib, **393,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,4 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **89,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbata n, foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	393,6	104,4	43,2	100,6	350,4	104,8
Buxoro shahri	200,5	117,8	31,8	104,2	168,7	120,8
Kogon shahri	11,0	110,7	-	-	11,0	110,7
<i>Tumanlar</i>						
Olot	7,8	119,3	-	-	7,8	119,3
Buxoro	26,5	140,8	-	-	26,5	140,8
Vobkent	17,8	67,6	-	-	17,8	67,6
G'ijduvon	38,2	122,0	-	-	38,2	122,0
Kogon	8,9	89,4	-	-	8,9	89,4
Qorako'l	15,4	88,6	-	-	15,4	88,6
Qorovulbozor	5,1	64,2	-	-	5,1	64,2
Peshku	7,3	65,4	-	-	7,3	65,4
Romitan	40,2	83,1	11,4	108,8	28,8	76,1
Jondor	7,8	63,5	-	-	7,8	63,5
Shofirkon	7,1	101,8	-	-	7,1	101,8

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) hajmi **2 422,7** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **150,6 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 912,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **165,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **509,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



*yanvar - avgust
2023- yil*



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	2 422,7	100
Buxoro shahri	1 504,7	62,1
Kogon shahri	6,6	0,3
tumanlar		
Olot	6,4	0,3
Buxoro	12,0	0,5
Vobkent	404,1	16,6
G'ijduvon	414,0	17,0
Kogon	6,1	0,3
Qorako'l	11,5	0,5
Qorovulbozor	4,5	0,2
Peshku	10,8	0,4
Romitan	11,5	0,5
Jondor	9,4	0,4
Shofirkon	21,1	0,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**1 504,7** mlrd. so'm), G'ijduvon (**414,0** mlrd. so'm) va Vobkent (**404,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **8711,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,1 %** ga ko‘paydi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda **6 255,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **117,9 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **71,8 %** ni tashkil qildi.




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**61,1 m.**), Qorovulbozor (**3,5 m.**) tumanlarida va Buxoro shahrida (**2,2 m.**) kuzatildi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 491** tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr holatiga nisbatan **734** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **141,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **27** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	8 711,1	104,1	2 455,2	80,2	6255,9	117,9
Buxoro shahri	3 558,6	139,6	319,5	2,2 m.	3239,1	134,6
Kogon shahri	251,7	104,7	137,7	93,3	114,0	122,8
<i>tumanlar</i>						
Olot	212,6	10,6 m.	0,4	61,1 m.	212,2	10,5 m.
Buxoro	247,5	99,0	-	-	247,5	99,0
Vobkent	859,4	66,8	837,7	66,6	21,7	74,0
G'ijduvon	711,2	69,3	250,1	67,2	461,1	70,5
Kogon	398,1	68,7	245,6	83,4	152,5	53,6
Qorako'l	95,5	88,4	10,0	22,3	85,5	135,1
Qorovulbozor	59,5	116,6	0,3	3,5 m.	59,2	116,1
Peshku	1052,5	153,5	410,9	90,5	641,6	2,7 m.
Romitan	492,6	94,4	242,9	92,9	249,7	95,9
Jondor	693,0	106,3	0	-	693,0	106,3
Shofirkon	78,5	20,0	-	-	78,5	25,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 65-223-75-63